

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**RAQAMLI IQTISODIYOT VA
AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

Davlat oliy ta'lim tashkiloti

60410800 – Menejment
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60410800 – Menejment

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**RAQAMLI IQTISODIYOT VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)


EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: KASIMOV IKBOLJON ILXAM O'G'LI

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

falsafa doktori (PhD)



A'zo: VLASIOS SARANTINOS

University of the West of England

professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260097
Xulosa raqami	1111
Xulosa sanasi	16.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"RAQAMLI IQTISODIYOT VA AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Boshliq dahasi, 3-uy. Guvohnoma: MAS № 0000143, 19.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Menejment
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60410800
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000143, 19.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60410800 – Menejment
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60410800 – Management
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60410800 – Менеджмент
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi / kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Menejer
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	160 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Boshliq dahasi, 3-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Qisman muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob ya'ni Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, universitetda "Menejment" ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma (kafedra) rasmiy ravishda shakllantirilgan bo'lib, uning moddiy-texnik va moliyaviy ta'minotiga oid aniq hamda tizimli rejalari mavjudligi aniqlanadi. Kafedra, fakultet va O'quv-metodika bo'limining vakolatlari hamda funksiyalari tegishli nizomlar bilan huquqiy jihatdan belgilangan bo'lib, ular ta'lim dasturining maqsadlariga muvofiq. Ichki sifatni ta'minlash tizimi, monitoring mexanizmlari hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash tartiblari joriy etilgan. Shu bilan birga, ayrim indikator (1.4-mezon) bo'yicha kamchilik aniqlanganligi sababli mazkur mezon qisman muvofiq deb baholanadi. Xususan, tegishli jarayonni dalillovchi hujjatlar va asoslantiruvchi materiallarni yanada to'liq shakllantirish tavsiya etiladi. Umuman olganda, tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslarni ta'minlaydi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan mazkur yo'nalish muvofiq deb baholanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob ya'ni ta'lim dasturlari yo'nalishi doirasida o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, mazkur yo'nalishning umumiy holati muvofiq deb baholanadi. Universitetda ta'lim dasturini ishlab chiqish, baholash va tasdiqlash jarayoni Davlat ta'lim standartlari hamda Milliy malakalar ramkasi talablari asosida tizimli ravishda tashkil etilgan. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, menejment sohasining mehnat bozori ehtiyojlariga yo'naltirilgan. Menejment yo'nalishi uchun nazariy boshqaruv bilimlarini amaliy keys-tahlillar va real biznes vaziyatlari bilan uyg'unlashtirish

muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tamoyilning ta'lim dasturi mazmunida o'z aksini topgani ijobiy baholanadi. Fanlarning ketma-ketligi va mazmuniy uyg'unligi talabalarning kasbiy kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini ta'minlaydi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi mazmuni bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida o'quv jarayonining tashkil etilishi hamda talabalar bilimini baholash tizimi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalariga ko'ra, mazkur yo'nalishning umumiy holati muvofiq deb baholanadi. Universitetda o'quv jarayoni talabalarga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilgan bo'lib, o'quv rejalari, fan dasturlari, o'qitish metodlari va baholash tartiblari amaldagi me'yoriy talablar asosida ishlab chiqilgan. Baholash tizimining shaffofligi va xolisligini ta'minlovchi mexanizmlar hamda akademik halollikni ta'minlash tartiblarining mavjudligi ijobiy baholanadi. Menejment yo'nalishi uchun amaliy komponent, jumladan biznes keyslari, loyihaviy ishlar va amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur komponentlarning o'quv jarayonida nazarda tutilgani ta'lim dasturining amaliy yo'naltirilganligini ko'rsatadi. O'quv natijalarini monitoring qilish hamda manfaatdor tomonlar bilan qayta aloqa mexanizmlarining mavjudligi ta'lim sifatini muntazam takomillashtirishga xizmat qiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan o'quv jarayoni va baholash tizimi muvofiq deb baholanadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob – Talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan tashqi baholash natijalariga ko'ra, mazkur yo'nalishning umumiy holati muvofiq deb baholanadi. Universitetda ta'lim dasturiga qabul qilish mezonlari va talablari aniq belgilangan bo'lib, ular abituriyentlarga ochiq va shaffof tarzda yetkaziladi. Qabul parametrlarining universitetning mavjud resurslari va imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgani, shuningdek, talabalar harakatini (o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish) tartibga soluvchi ichki hujjatlarning mavjudligi talabaning ta'lim traektoriyasini himoya qilishga xizmat qiladi. Talabalarni akademik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, ular ijobiy baholanadi. Qabul jarayonining shaffofligi hamda barcha abituriyentlar uchun teng imkoniyatlarning ta'minlangani aniqlanadi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida inson resurslari salohiyati, pedagog hamda ma'muriy-yordamchi xodimlar bilan ta'minlanganlik, shuningdek, ularni rag'batlantirish tizimi tashqi baholash mezonlari asosida tahlil qilinib, mazkur yo'nalishning umumiy holati muvofiq deb baholanadi. Professor-o'qituvchilar tarkibi son va sifat jihatidan ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yetarli. Menejment yo'nalishida professor-o'qituvchilarning nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy boshqaruv va biznes tajribasiga ega bo'lishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga mosligi ijobiy baholanadi. Kadrlarni tanlash, malaka oshirish, kasbiy rivojlantirish hamda rag'batlantirish bo'yicha tizimli mexanizmlarning mavjudligi inson resurslari salohiyatining barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, ilmiy va amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kuchaytirish tavsiya etiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan inson resurslari yo'nalishi bo'yicha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida "Menejment" bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik hamda axborot-resurs bazasi tashqi baholash mezonlari asosida tahlil qilinib, mazkur yo'nalishning umumiy holati muvofiq deb baholanadi. Universitet zamonaviy o'quv binolari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi hamda zarur o'quv-uslubiy resurslarga ega bo'lib, ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish uchun moddiy-texnik baza yetarli. Barcha o'quv xonalari multimedia vositalari, proyektorlar, smart-monitorlar va yuqori tezlikdagi internetga ulangan kompyuterlar bilan jihozlangani menejment yo'nalishi uchun zamonaviy raqamli ta'lim muhitini yaratishda muhim omil sifatida ijobiy baholanadi. Axborot-resurs markazi (kutubxona) fondi yangi ta'lim dasturi talablariga muvofiq shakllantirilgan. Shu bilan birga, ayrim indikator (6.4-mezon) bo'yicha kamchilik aniqlanganligi sababli mazkur mezon qisman muvofiq deb baholanadi. Xususan, jihozlar va resurslar bilan ta'minlanganlikni belgilangan me'yorlarga to'liq yetkazish tavsiya etiladi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi muvofiq deb baholanadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi ayrim indikator (1.4-mezon) bo'yicha jarayonni dalillar bilan yanada to'liq asoslash tavsiya etiladi.
- ✓ Moddiy-texnik ta'minot bo'yicha ayrim indikator (6.4-mezon) bo'yicha jihozlar va resurslar bilan ta'minlanganlikni belgilangan me'yorlarga to'liq yetkazish talab etiladi.
- ✓ Professor-o'qituvchilarning ilmiy va amaliy faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Tashkiliy-boshqaruv jarayonlarini (1.4-mezon) dalillovchi materiallar bilan to'liq hujjatlashtirish.
- ✓ Moddiy-texnik baza va jihozlarni (6.4-mezon) belgilangan me'yorlarga muvofiq mustahkamlash.
- ✓ Menejment yo'nalishida amaliy biznes tajribasiga ega kadrlar va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Zamonaviy biznes-simulyatsiyalar, keys-tahlil va raqamli o'quv resurslaridan foydalanishni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 60410800 – "Menejment" bakalavriat ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, malakali kadrlar tarkibi, davlat ta'lim standartlari asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturi hamda zamonaviy moddiy-texnik baza (multimedia, smart-monitorlar, AKT infratuzilmasi) shakllantirilgan; barcha yo'nalishlar (bob) muvofiq deb topildi. Shu bilan birga, ikki indikator bo'yicha qisman muvofiqlik qayd etildi: tashkiliy-boshqaruv jarayonini asoslash (1.4) va moddiy-texnik jihozlanishni me'yorlarga yetkazish (6.4) tavsiya etiladi. Aniqlangan kamchiliklar dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy

xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

